

## **Tergov amaliyotida advokat himoyasini samarali tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati.**

**Mallayev Normamat Ramazonovich.** Yuridik fanlar nomzodi, dotsent.  
**Maxmanova Munisa Erkin qizi,** Termiz davlat universiteti Advokatlik  
faoliyati mutaxassisligi 1-kurs tinglovchisi. +998887394488

[maxmanovamunisa@gmail.com](mailto:maxmanovamunisa@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqot ishi tergov amaliyotida advokat himoyasini samarali tashkil etish uchun zamonaviy axborot texnologiyalarining qanday afzalliklari va imkoniyatlari mavjudligini tahlil qiladi. Shu bilan birga, bu texnologiyalarning amaliyotda qo‘llanilishi bilan bog‘liq muammo va cheklovlarni ham ko‘rib chiqadi. Ushbu maqola raqamli texnologik vositalarning nafaqat advokatning o‘z ishini samarali bajarishidagi, balki tergov jarayonidagi ish materiallarining to‘g‘ri tahlil qilinish jarayonidagi ahamiyatini ham yoritib beradi.

**Kalit so‘zlar:** advokat himoyasi, tergov jarayoni, sun‘iy intellekt, psixologik yondashuvlar, elektron hujjatlar, onlayn platforma.

Bugungi kunda huquqni muhofaza qilish organlar tizimi va sud-huquq amaliyotini takomillashtirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining roli tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, tergov jarayonida advokat himoyasini samarali tashkil etishda ushbu texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Axborot texnologiyalari advokatlarga huquqiy hujjatlarni osonroq tahlil qilish, ma‘lumotlarni tezkor yig‘ish va qayta ishlash, shuningdek, fuqarolarning huquqiy himoyasini oqilona tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi.

Yangi texnologiyalarning tergov va sud amaliyotiga tatbiq etilishi advokatlar uchun yangi imkoniyatlar ochib, tergov jarayonidagi murakkabliklarni kamaytirish va ortiqcha byurokratik to‘siqlarning oldini olishga xizmat qiladi. Masalan, elektron bazalar orqali sud amaliyoti bilan bog‘liq qarorlarni tahlil qilish, ekspert xulosalari va boshqa muhim ma‘lumotlarga tezkor kirish kabi jarayonlar advokat himoyasi sifatini sezilarli darajada oshiradi. Bundan tashqari, onlayn platformalar va raqamli



vositalar advokatlarga ishonch bildiruvchi shaxslar bilan masofaviy tarzda muloqot qilish, tezkor hujjatlar almashinuvi va masalalarni yanada strategik yondashuv bilan hal qilish imkonini beradi.

Zamonaviy tergov amaliyoti an'anaviy usullardan farqli ravishda texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va huquqiy tamoyillar asosida tashkil etiladi. Bu, jinoyatlarni aniqlash va tergov qilish jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga, inson huquqlarining muhofaza qilinishini ham kafolatlaydi. Quyida zamonaviy tergov amaliyotining asosiy o'ziga xos xususiyatlari keltirilgan:

- Elektron axborot tizimlaridan foydalangan holda dalillarni yig'ish va tahlil qilish. Masalan, gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga aloqador bo'lgan ma'lumotlarni vakolatli davlat organlaridan onlayn shaklda olish imkoniyati.

- Sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili: rivojlangan huquqiy-demokratik davlatlar amaliyotida jinoyatlarni tezroq ochish va murakkab ma'lumotlarni tahlil qilish uchun sun'iy intellektdan foydalanish.<sup>1</sup>

- Video yozuv va kuzatuv texnologiyalari: jinoyat joyidagi kuzatuv kameralarining yozuvlari va dronlar yordamida dalillar yig'ish.<sup>2</sup>

- Shaffoflik: tergov jarayonining shaffofligini ta'minlash uchun so'roq va boshqa protsessual harakatlarning audio yoki videoyozuv shaklida yozib olinishi.

- Xalqaro hamkorlik: transmilliy jinoyatlarda boshqa davlatlarning huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlik qilish amaliyoti.

- Maxsus bilimlar: kiberjinoyatlar bo'yicha tergov qilish uchun mutaxassislar zamonaviy dasturiy ta'minot va texnologiyalardan foydalanish.

- Virtual muhitdagi dalillar: elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar, internet trafik yozuvlari va boshqa virtual dalillarni to'plash usullari.

- DNK ekspertizasi: jinoyatchini aniqlash yoki dalillarni tasdiqlashda eng ishonchli usullardan biri hisoblanadi.<sup>3</sup>

- Biometrik texnologiyalar: Barmoq izlari, ko'z qorachig'i yoki yuz tanib olish tizimlari orqali shaxsni aniqlash.

<sup>1</sup> <https://www.dw.com/en/how-chinas-ai-is-automating-the-legal-system/a-64465988>

<sup>2</sup> <https://consortiq.com/uas-resources/how-drones-improve-crime-scene-investigation>

<sup>3</sup> [Law enforcement use of genetic genealogy databases in criminal investigations: Nomenclature, definition and scope - PMC](#)



- Kiberxavfsizlik tahlillari: elektron tizimlarda sodir bo‘lgan buzilishlar yoki izlarni aniqlash uchun maxsus ekspertiza amalga oshirish.

- Big Data tahlili: katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali jinoyatlar orasidagi bog‘liqliklarni aniqlash imkoniyati.

- Onlayn muloqot: guvohlar yoki boshqa mutaxassislar bilan masofadan turib so‘roq va maslahatlar olib borish imkoniyati.

- Zamonaviy tergov amaliyotida jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar keng qo‘llaniladi. Masalan, jinoyat sodir etilish xavfi yuqori bo‘lgan zonalarini kuzatish va potensial jinoyatchilarni oldindan aniqlash texnologiyalari.

- Tergovchilarni zamonaviy texnologiyalar va metodikalar bo‘yicha doimiy o‘qitish. Bu ularga yangi jinoyat turlarini ochishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatini beradi.

Ta’kidlash joiz bo‘lgan eng muhim masalardan yana biri bu tergovning barcha bosqichlarida gumonlanuvchi yoki ayblanuvchining o‘z huquqlaridan samarali foydalanishidir. Bu jarayonda advokatlarning ishtiroki muhim sanaladi va ular uchun ham himoya huquqi haqidagi bir qancha zamonaviy yondashuvlar mavjud. Tergov jarayonida advokat himoyasini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati huquqiy tizimning samaradorligini oshirish va fuqarolarning huquqlarini kafolatlashda muhim o‘rin tutadi. Quyida ushbu yondashuvlarning asosiy ahamiyati va ular orqali erishiladigan natijalar yoritiladi:

- Zamonaviy yondashuvlar advokatning mustaqilligini oshirishga, jumladan: himoya strategiyalarini aniq va asosli ishlab chiqishga yordam beradi.

- Tergov jarayonida o‘z manfaatlarini himoya qiladigan shaxslarning huquqlari ta’minlanishini yaxshilaydi.

- Elektron hujjatlar bilan ishlash: yangi texnologiyalar hujjatlarni yig‘ish va tahlil qilishda vaqtning tejaydi.

- Sun‘iy intellekt vositalari: advokat ishga aloqador bo‘lgan qonun hujjatlarini tezkor tahlil qilishda yordam beradi.<sup>4</sup>

- Onlayn platformalar orqali yuridik yordamning yanada qulay va tezkor bo‘lishi.<sup>5</sup>

<sup>4</sup> <https://www.unesco.org/en/articles/judicial-operators-100-countries-express-interest-learning-about-ai-and-rule-law-unesco>

<sup>5</sup> [www.rocketlawyer.com](http://www.rocketlawyer.com)





- Ishonch bildiruvchi shaxslarga qonuniy huquq va manfaatlarini tushuntirishda zamonaviy vizual va interaktiv usullardan foydalanish.

- Psixologik yondashuvlarning ahamiyati: advokatning mijoz bilan ishlash davomida zamonaviy psixologik usullardan foydalanish ularning huquqiy himoyasi samarali ta'minlanishini kafolatlaydi. Bunga mijoz bilan psixologik kontakt o'rnatish, ichki qo'rquv va xavotirlarini kamaytirish uchun u bilan ochiq va xolis muloqot qilish, shuningdek ularni aktiv tinglash orqali muammolarini aniq tushunish orqali erishish mumkin. Bunda advokatning professional psixologlar bilan ishlashi tavsiya etiladi.<sup>6</sup>

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda quyidagilarni taklif qilish mumkin:

-Elektron axborot tizimlari va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish orqali tergov jarayonini optimallashtirish.

- Guvoh va jabrlanuvchilarni himoya qilish uchun zamonaviy kuzatuv va shaffoflik vositalarini tatbiq etish.

- Kiberjinoyatlar va raqamli dalillar bilan ishlash bo'yicha malaka oshirish.

- BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan standart va tavsiyalarni mahalliy tizimga tatbiq etish.

- Transmilliy jinoyatlar bo'yicha xalqaro hamkorlikni kuchaytirish.

-Advokatlarning mijoz bilan ishlashida psixologik qo'llab-quvvatlash vositalaridan foydalanish, protsess ishtirokchilari bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish uchun maxsus treninglar o'tkazish.

Taklif qilingan choralar huquqiy tizimni zamonaviylashtirish va fuqarolarning manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Tergov jarayonida advokatlarning himoyasi sifatini oshirish va texnologik yondashuvlarni tatbiq etish bilan mamlakatning huquqiy tizimi xalqaro talablar darajasiga chiqishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish joizki, zamonaviy tergov amaliyotida advokatlik himoyasining ahamiyati faqat texnologik imkoniyatlarni qo'llash bilangina cheklanib qolmay, balki huquqiy tizimning umumiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa milliy va xalqaro darajada huquqiy davlat qurilishida muhim qadam hisoblanadi.

<sup>6</sup> [Psychology and Law: Exploring the Intriguing Connection - AP PGCET](#)



### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Artificial Intelligence and Legal Analytics: New Tools for Law Practice in the Digital Age" by Kevin D. Ashley. 2017
2. "Cybercrime and Digital Forensics: An Introduction" by Thomas J. Holt, Adam M. Bossler, and Kathryn C. Seigfried-Spellar. 2015.
3. "Psychology and Law: Exploring the Intriguing Connection" – AP PGECET.
4. "How China's AI is Automating the Legal System" – DW, <https://www.dw.com/en/how-chinas-ai-is-automating-the-legal-system/a-64465988>.
5. "Law Enforcement Use of Genetic Genealogy Databases in Criminal Investigations: Nomenclature, Definition and Scope" – PMC, <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/>.
6. "How Drones Improve Crime Scene Investigation" – Consortiq, <https://consortiq.com/uas-resources/how-drones-improve-crime-scene-investigation>.
7. Xalqaro yuridik platformalar bo'yicha tahliliy materiallar, [www.rocketlawyer.com](http://www.rocketlawyer.com).

---

# Research Science and Innovation House